

TA'LIM BERISH JARAYONI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

T.f.d dotsent. Z.L.Botirov

Assistant. X.IIhomov

Annotatsiya. Maqolada Maqsadni ehtiyojlardan hosil qilishni o'qituvchi o'zini funksiyasi deb hisoblasa, ehtiyojlarni boshqarish mashqlari bajarilib pedagogik jarayonni tarbiyaviy aspekti amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon maqsadlarida umumiylikni aniqlash uchun o'qitish texnologiyasining ketma-ketlik zanjirini nazariy asoslash va amaliy qo'llash asosida bajariladi. Shunga asosan tarbiya-maqsadlarini hosil qilish texnologiyasida bazaviy jarayon hisoblanadi. Ehtiyoj, o'qitish normalari va qobiliyat bilan ichki aloqada bo'lib, tarbiyani esa o'qitish, rivojlanish bilan, maqsadni uz navbatida mazmun va metod bilan ta'lim jarayonining texnologik zanjirida mos adekvat bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: o'qitish, pedagog, jarayon, modulli, metod, o'qituvchi, faoliyat.

Bugungi kunda, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalar jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Ta'limning sifat va samaradorlik ko'rsatkichini faqatgina pedagogik texnologiyalar asosida ta'minlash mumkin.

Ma'lumki, har bir jarayon bir qator ketma-ket o'zgarishlar zanjirini ko'zda tutadi. Uning natijasida boshlang'ich va yakuniy holatlar bir-biridan farq qiladi. Ular o'rtasidagi farq jarayonning natijasini beradi, natijani taxmin, bashorat qilish maqsad bo'lib hisoblanadi. Maqsad-faoliyat mazmunini unga taalluqli metodlarni qo'llash tufayli amalga oshiriladi.

O'qitish pedagogik jarayon bo'lib, undagi subyektlarning (o'qituvchi, o'quvchi, guruh) o'zaro harakati natijasi, ularni bu harakatida maqsad, mazmun, metod o'zaro bog'lik bo'ladi. Harakat natijasi aksariyat holda pedagogik jarayonning texnologiyasiga bog'lik bo'ladi. Maqsadni qo'yish, mazmunni o'zlashtirish, metodni egallash texnologiyaning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik faoliyat o'qituvchi tomonidan to'lig'icha ta'limni hayotiy funksiyasi hamda shaxsiy kasbiy funksiyasi sifatida amalga oshirilsa pedagogik texnologiya pedagogik faoliyatni mezonli bo'lishini ta'minlaydi.

O'qituvchining maqsadi-har bir o'quvchini harakati natijaviy bo'lishini ta'minlashdir. Pedagogik jarayonda maqsadni o'quvchini ehtiyojlaridan hosil qilish uchun o'qituvchi ta'lim mazmunini aktuallashtirib sharoit yaratadi.

Maqsadni ehtiyojlardan hosil qilishni o'qituvchi o'zini funksiyasi deb hisoblasa, ehtiyojlarni boshqarish mashqlari bajarilib pedagogik jarayonni tarbiyaviy aspekti amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon maqsadlarida umumiylikni aniqlash uchun o'qitish texnologiyasining ketma-ketlik zanjirini nazariy asoslash va amaliy qo'llash asosida bajariladi. Shunga asosan tarbiya-maqsadlarini hosil qilish texnologiyasida bazaviy jarayon hisoblanadi.

Ehtiyoj, o'qitish normalari va qobiliyat bilan ichki aloqada bo'lib, tarbiyani esa o'qitish, rivojlanish bilan, maqsadni uz navbatida mazmun va metod bilan ta'lim jarayonining texnologik zanjirida mos adekvat bo'lishini ta'minlaydi.

O'qituvchi tomonidan belgilanadigan o'qitish mazmuni (normasi) o'quvchi uchun tashqi bir element bo'lib hisoblanadi. O'qitish mazmuni o'quvchini ichki xususiy normalariga aylanishi, uning o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Bunday jarayon har bir o'quvchida hosil bo'lishi uchun, o'qitish mazmuni tizimli yadro qatlamli tuzilishiga ega bo'lishi lozim. O'quvchi tomonidan qatlamlar soni qanchalik ko'p o'zlashtirilsa o'qitish mazmunini o'zlashtirish darajasi shunchalik chuqur bo'ladi.

O'quv materialini dozalash, modulli o'qitish tizimining asosini tashkil etadi. Ta'limda modul, tizimni o'zgartirish koeffitsiyenti bo'lib, hisoblanadi. Shu sababli o'quv materialini modeli, o'rganiladigan tizimni eng ahamiyatli elementi deb qaraladi. Bunda tanlash, o'z-o'zini anglash tufayli, ta'limda individuallik, differentsiatsiyalash, mustaqillik kabilar amalga oshiriladi.

Modulli tuzilma texnologiyasini o'zlashtirish, ham o'qituvchiga ham o'quvchiga individual (shaxsiy ehtiyojlarga xos) dasturlarni tuzish imkonini yaratib, ta'lim mazmunini aktuallashtiradi, ya'ni pedagogik jarayonni natijaviy bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik jarayonni natijasi ko'p hollarda o'qituvchi tanlagan metodga bog'liq. Metodda esa o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini namoyish etadi. Metodni tanlashdagi asosiy talab-o'quvchini qobiliyatini rivojlantirish uchun shart sharoit

yaratishdan iborat. Qobiliyatni harakat usuli sifatida namoyish etish uchun, harakat fikr, soʻz, faoliyat koʻrinishida bajariladi. Metod tufayli qobiliyat quyidagi jarayonlarda namoyon boʻladi:

- fikrga tezis shakli berish;
- tushunish uchun soʻzni, iboralarni tuzish;
- anglash, harakatni tuzish, shu jumladan fikr harakatini tuzish kabilar.

Tayanch signallari (modullar) fikrni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki modullar yangi aloqalarni izlash, yani fikr hosil qilish, fikrni shakllantirish imkonini beradi.

Faoliyat harakatini tuzishda, oʻquv jamoani guruhlarga boʻlish natijasida har bir oʻquvchi oʻzini tushunishlari va oʻzi tushunishi uchun kommunikativ trenning rejimi yaratiladi. Metodni tanlash jarayonida taʼlim funksiyasi amalga oshirilib, faoliyatga tayyorlash uchun-kasbiy faoliyat usullar mashqini taʼminlaydigan metodlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Oʻqitish texnologiyalari pedagogik jarayon yaxlidligini taminlab, tarbiyaviy, taʼlimiy, rivojlanuvchi funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogy and Practice; Teaching and Learning in Secondary Schools.
2. Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.
3. John Dewey, How we think (1910). Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003) Columbia University Press. Gutek Gerald L. (2009) New Perspectives on Philosophy and education. Pearson Education Inc.
4. Ergashevna, S. N. (2023). NARRATIVE REPERTOIRE AND ITS INFLUENCE ON THE EPIC TRADITION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 12(3), 33-43.
5. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika. Darslik T.: O‘qituvchi 2008-yil
6. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mullahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.
7. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil
8. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi 2010-yil
9. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.
10. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2009-yil.